



**IQTISODIYOTNI VA UNING REAL SEKTORINI  
RIVOJLANTIRISHDA XUSUSIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI VA  
AHAMIYATI**

***Maxmudov Anvarjon Maxmudovich***

*Farg'ona davlat texnika universiteti, katta o'qituvchisi, PhD,*

*anvar\_maxmudov1968@mail.ru*

***Akramova Barchinoy***

*Farg'ona davlat texnika universiteti, 3-kurs talabasi,*

*barchinoyakramova998@gmail.com*

***Nosirova Shaxlo***

*Farg'ona davlat texnika universiteti, 3-kurs talabasi,*

*Akbaraliyevashaxlo2@gmail.com*

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining investitsion iqtisodiyoti va real sektori rivoji kuzatilmalari va ushbu jarayonda muhim o'rin egallagan xususiy investitsiyaning jadal o'sib borayotgan jarayonlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, investitsiya muhitidagi dolzarb muammolar va ularga yechimlar, olib borilayotgan islohotlar muhokama qilinadi. Investitsiyaning jozibadorligini oshirish, keng ko'lamli sharoitlar yaratish hamda elektron hizmatlarni joriy etish takliflari yoritilgan.

***Kalit so'zlar:*** investitsiya, investitsion jozibadorlik, xususiy investitsiya, xorijiy sarmoyalar, real sektor, moliyaviy sektor, erkin iqtisodiy zonalar.

Dunyo iqtisodiyoti globallashuv va raqobat sharoitida tez o'zgarib borayotgan bir paytda har qanday mamlakatning iqtisodiy qudrati uning investitsiya siyosatiga bog'liq bo'ladi. Xususan, xususiy investitsiyalar iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat kapitalni ko'paytiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratadi, texnologiyalarni joriy etadi va umuman iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.



Iqtisodiyotning real sektori mamlakat iqtisodiy o‘shishi, bandlik darajasining oshishi va barqarorlikni ta’minlovchi eng asosiy qism sifatida qaraladi. Ushbu sektor ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo hamda qishloq xo‘jaligi kabi sohalarni o‘z ichiga oladi va aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy boyliklar va xizmatlar yaratishga qaratilgan. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi real sektor ulushi katta bo‘lib, uning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Real sektor inson mehnati, tabiiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, shuningdek, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali moddiy qiymat yaratadi. Ushbu sektor iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni ilgari surish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkonini beradi. Real sektor faoliyati iqtisodiy samaradorlikni oshirish, bandlikni ta’minlash va aholining daromadlarini ko‘tarish yo‘nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, real sektor ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to‘ldirish va mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, davlatlar real sektorni qo‘llab-quvvatlash, uni rivojlantirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh qilish maqsadida turli dasturlarni amalga oshiradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali real sektorda samaradorlik oshadi, xarajatlar kamayadi va mahsulot sifati yaxshilanadi. Bozor talablariga moslashadigan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qiluvchi real sektor tarmoqlari esa iqtisodiy o‘shishning mustahkam omillari hisoblanadi.

So‘nggi yillarda real sektorning raqamlashtirilishi va avtomatlashtirilishi sezilarli darajada ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, logistika va savdo tarmoqlarini rivojlantirish orqali real sektorning samaradorligi oshmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan milliy mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytiradi. Shu tariqa, real sektor iqtisodiyotning tayanch qismiga aylangan holda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

2025-yilda O‘zbekiston sanoat sektoriga jami 297,6 trillion so‘m investitsiya yo‘naltirildi ya’ni bu umumiy investitsiyalarning taxminan 50,4% ga teng.



Asosiy yo'nalishlarga ajratilgan sarmoyalar taqsimotini ko'rib chiqamiz:

Ishlab chiqarish sanoati — 160,5 trillion so'm (27,2%)

Elektr energiyasi, gaz va bug' ta'minoti — 78,3 trillion so'm (13,3%)

Konchilik sanoati — 58,8 trillion so'm (9,9%)

Xususiy investitsiyalar — davlatga tegishli bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan iqtisodiyotga kiritiladigan mablag'lar bo'lib, ular asosan foyda olish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu investitsiyalar korxonalar tashkil etish, mavjud biznesni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish yoki turli moliyaviy aktivlarga mablag' yo'naltirish shaklida namoyon bo'ladi.

Xususiy investitsiyalar iqtisodiyot rivojida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, xususiy sektorning kengayishi raqobat muhitini kuchaytirib, mahsulot va xizmatlar sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Shuningdek, investorlar tomonidan ilg'or texnologiyalar va boshqaruv tajribasini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Xususiy investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi: to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalari va venchur investitsiyalar. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar asosan korxonalar tashkil etish yoki uning rivojlanishiga qaratilgan bo'lsa, portfel investitsiyalari aksiyalar va obligatsiyalar kabi moliyaviy vositalarga mablag' kiritishni anglatadi. Venchur investitsiyalar esa yuqori riskli, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

2025-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti va real sektorlariga (jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa real iqtisodiyot tarmoqlariga) yo'naltirilgan umumiy xususiy investitsiyalar (asosiy kapitalga investitsiyalar) barcha moliyalashtirish manbalaridan 528,5 trillion 141 milliard so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga o'sishni ko'rsatadi va iqtisodiyotning asosiy qismini qamrab oladi, chunki asosiy kapital investitsiyalari real sektorlarga qaratilgan. Investitsiyalarning asosiy manbalari markazlashmagan (davlat byudjetidan tashqari) bo'lib, ularning 90 foizdan ortig'i xususiy sektor va xorijiy investitsiyalardan kelib tushgan. Xususan, xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va




kreditlar umumiy investitsiyalarning 40,5 foizini (239,4 trillion so‘m) tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 46,9 foizga oshgan. Kompaniyalar o‘z mablag‘lari orqali 147,8 trillion so‘m (7,7 foiz o‘shish), aholining hissasi 38,4 trillion so‘m (12,3 foiz o‘shish), tijorat banklari kreditlari esa 22,1 trillion so‘mni ta‘minlagan.

Yangi asosiy vositalarga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy hajmi 33,5 milliard AQSh dollariga (422,1 trillion so‘mga) teng bo‘lgan. Ushbu investitsiyalar sanoatning o‘shishini ta‘minlab, ishlab chiqarish hajmini 2024-yilga nisbatan 6,8 foizga oshirishga yordam berdi.

Xususiy investitsiyalar ma‘lum darajada risk va noaniqliklarni ham o‘z ichiga oladi. Investorlar uchun foyda kafolatlanmagan bo‘lib, bozor sharoitlarining o‘zgarishi zarar ko‘rish xavfini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, ba‘zi holatlarda investorlarning manfaatlari milliy iqtisodiy manfaatlar bilan to‘liq mos kelmasligi ham mumkin.


Mamlakatimiz bo‘ylab xususiy investitsiyalarni jalb qilish, ularni qo‘llab-quvvatlash va sharoitlar yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

2025-yilda O‘zbekistonda xususiy investitsiya shartnomalari asosan xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (FDI) va xususiy sektor loyihalari orqali amalga oshirilgan bo‘lib, umumiy xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard AQSh dollariga yetdi, bu 2024-yilga nisbatan 24 foizga o‘shishni ko‘rsatadi. Ushbu summaning katta qismi xususiy investitsiyalarga to‘g‘ri keladi, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 38,2 milliard dollar (taxminan 481 trillion so‘m) ni tashkil etdi, qolgan 4,9 milliard dollar esa xalqaro moliya institutlaridan kelgan mablag‘ hisoblanadi. Umumiy investitsiyalarning 89-90 foizi markazlashmagan, ya‘ni xususiy manbalardan iborat bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan o‘shishni bildiradi.



1-rasm. Xorijiy investitsiyalarni O'zbekistonga kiritilishi

Xususiy investitsiya shartnomalari bo'yicha davlatlar taqsimoti (2025-yil dastlabki chorak ma'lumotlari asosida) quyidagicha: Xitoy 33% ulush bilan (taxminan 14,2 milliard dollar), Rossiya 10% (4,3 milliard dollar), Turkiya 5,2% (2,2 milliard dollar), Saudiya Arabistoni 4,7% (2 milliard dollar), Niderlandiya 3,7% (1,6 milliard dollar) va Germaniya 3,3% (1,4 milliard dollar) ulushga ega. Qolgan ulushlar Buyuk Britaniya, AQSh, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar orasida taqsimlangan.



## 2-rasm. Xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalar

2025-yilda xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalar soni 14 871 taga yetib, ulardan eng ko‘pi Xitoy (3467 ta), Rossiya (2973 ta) va Turkiyaga (1869 ta) tegishli. Ushbu shartnomalar asosan Toshkent Xalqaro Investitsiya Forumi va boshqa xalqaro tadbirlar orqali kelishilgan bo‘lib, umumiy investitsiyalarning 71 foizi xorijiy manbalardan kelgan. Bu ko‘rsatkichlar investitsion jozibadorlikni qanchalik yuqori ekanligini anglatadi. Ya’ni O‘zbekiston qanchalik xorijiy davlatlardan investorlarni jalb qila olish qobiliyati aks etadi.

O‘tgan yillarda qator davlatlar bilan muhim iqtisodiyotiga ulkan ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan investitsiya shartnomalarini imzoladilar. Bular:

AQSHning yetakchi kompaniyalari, bilan 2030-yilgacha transport infratuzilmasini rivojlantirishga 12 milliard dollar;

Yaponiya investitsiya kampaniyalari: “Sumitomo”, “Chubu Electric Power”, “Shikoku Electric Power” kompaniyalari tomonidan JBIC va NEXI ko‘magida O‘zbekistonda ikkita quyosh elektr stansiyasini qurish;

“Toyota Susho” ishtirokida AT infratuzilmasini modernizatsiya qilish;



“Sojitz” kompaniyasi tomonidan ko‘p tarmoqli tibbiyot markazini tashkil etish;

“JOGMEC” ishtirokida yangi o‘ta muhim mineral konlarini o‘zlashtirish.

Izchil islohotlar ketyotganiga qaramay sohada bir qancha mammo va to‘siqlar yuzaga kelmoqda:

huquqiy va institutsional barqarorlik yetishmasligi, huquqiy tizim xalqaro standartlarga to‘liq mos emasligi;

byurokratik to‘siqlar va murakkab ruxsatnomalar;

yer va mulk huquqlari muammolari;

moliya va kredit tizimining rivojlanmaganligi;

infratuzilma va mintaqaviy notekislik, hududlarda yo‘l, energiya, suv va raqamli infratuzilma yetishmasligi;

shaffoflik va korrupsiya xavfi;

global va tashqi xatarlar, Geosiyosiy beqarorlik, savdo urushlari, inflyatsiya va narx o‘zgarishlari investitsiya oqimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekistondabu muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etilib borilmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib investorlarga imtiyozlar berilmoqda. Investor va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlab, imkoniyatlar yaratdi, ko‘plab muhim qarorlar qabul qilindi. Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va investitsiya sohasida ularni joriy etish hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma’lumotlari
2. UzDaily.uz (2025-yil 26-yanvar)
3. Gazeta.uz (2025-yil 18-fevral)
4. <https://gov.uz/oz/miit/news/view/116876>
5. Statistika agentligining rasmiy press-relizi va hisobotlari